

BOLALARNI KITOBGA QIZIQTIRISHNING ILK PEDAGOGIK USULLARI

Muhammadiyeva Nozimaxon Alijon qizi

Qo‘qon Universiteti. Ta‘lim fakulteti.

Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Telefon raqami: +998882071611

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20351331>

Annotatsiya: Bola uchun kitob haqiqatan ham eng yaxshi sovg‘a, ammo uni barcha birdek sevib o‘qishni istamaydi. Ko‘pchilik farzandini uyda o‘qishga majburlaydi. Ammo bu noto‘g‘ri. Uni kitobga majburan qiziqtirib bo‘lmaydi. Buning o‘rniga bir nechta samarali texnikalardan foydalangan ma‘qul. Ushbu tezisda buni bir necha pedagogik usullarini ko‘rib chiqamiz

Kalit so‘zlar: Kitob, kitobga qiziqtirish, pedagog, usul, bola, maktabgacha ta‘lim tashkiloti.

Bolalar avvalambor ota-onasida ko‘rgan xilqatlarni o‘zlashtiradi va ularda uni tarbiya jarayoni shakllanadi shu sababdan bolalarga tug‘ilgandan boshlab kitob o‘qib bering. Ha, chaqaloq hali so‘zlarni tushunmaydi, lekin ona o‘qigan she‘rlar chaqaloqqa uning yaqinligi haqida “gapiradi”. Onasining ovozi va ohangi uni tinchlantiradi. 10 oydan bir yarim yilgacha bolaning so‘z boyligi shakllana boradi. U butun his-tuyg‘ulari bilan dunyoni faol ravishda o‘rganadi axir. Biroq kitob o‘qishda to‘rt daqiqadan ortiq bo‘lmagan e‘tibor bosqichidan oshib ketmang.

Ikki yoshdan boshlab bola alohida so‘z va iboralarni hikoya sifatida qabul qiladi va uch yoshda u nafaqat tinglovchi, balki faol suhbatdoshga ham aylanadi. Bu vaqtda u qayta o‘qishga ishtiyolni rivojlantiradi. Ularga kitobni 20 daqiqadan ortiq o‘qib bermang. Bu bola ayni yoshda bardosh bera oladigan maksimaldir.

Bolaga qaysi janr yoqishini topish va unga o‘sha turdagi kitoblarni mutolaa qilishga ruxsat berish lozim. Komikslar, detektivlar, fentezi va boshqa janrlar o‘smir bolalarni qiziqtirishi tabiiy.

Layfhak: Basketbol muxlisiga Maykl Jordanning tarjimai holi, kino san‘atiga qiziqadigan qizga esa Plisetskayaning xotiralari yoqadi. Dinozavrlarni yoqtiradigan bolani rang-barang ilmiy kitoblar hayratga soladi.

Bolalarni kitobga qiziqtirishda yana maktabgacha ta‘lim tashkilotining ham ahamiyati kata. Ularga kitoblarni obrazlarga bo‘lib sahna ko‘rinishlari tashkillash orqali ham amalga oshirishlari mumkin. Bu jarayonda bolaning tasvvur qilish qobiliyati yanada rivojlanadi va ko‘rib o‘rganish orqali kitobdagi sahnalarni yaxshi eslab qolishga yordam beradi.

Shuningdek bolalarni kitobga qiziqtirishda yana bir muvoffaqiyatli usulidan biri bu unga kitob o‘qib berish bilan birga kitobdagi qaxramonlarni rasmlarini chizish orqali ularni tasavvurlarini va kitobdi qanday idrok etayotganlarini bilish mumkin, zero har bir bola o‘z qaxramonini o‘zi hohlaganidek tasvvur qiladi. Bu ham kitobga qiziqishini oshiradi.

Bolaga har bir o‘qilgan kitob sahifasi uchun maqtov, bir hikoya uchun sovg‘a, kitob uchun mukofot bering. Bular shirinlik, pul, biron joyga birga borish, muzqaymoq, konsertga chipta, video‘yin o‘ynash va bolani xursand qiladigan boshqa ko‘plab narsalar bo‘lishi mumkin. Muhimi rag‘bat o‘qilgan matn o‘lchamiga yarasha bo‘lsin. Ya‘ni bir bet o‘qilgan matn uchun qimmatbaho sovg‘a berish mantiqsiz bo‘ladi – o‘z samarasini bermaydi, sovg‘aning katta-kichikligi o‘qilgan hajmga qarab belgilanishi lozim.

Kitobdagi voqealarni bolangizning kundalik hayoti bilan bog‘lang. Masalan, kitobdagi qahramonlar haqida gapirib, «Agar shu voqea biz bilan yuz berganida nima qilgan bo‘lar edi?», «Hikoyaning davomi qanday bo‘lishi mumkin?», «Qahramonga qanday yordam bersak bo‘lar edi?», «Sen bu qahramonni qanday chizgan bo‘lar eding?» kabi savollarni berib muhokama qilish lozim.

Hozirgi bolalar oldingi avlodlarga nisbatan ortiqcha yuklanishlarga ega ekanligi ham hech kimga sir emas. bugungi kunda ham kitob o'qish atrofida, ham bolalarni maktabga tayyorlash bobida vaziyatni keskinlashtirishga umumiy moyillik kuzatilmoqda. Go'daklarni yo'rgakdanoq alifbeni o'rganish va bo'g'inlab o'qishga majbur qilinmoqda. O'zib ketish borasidagi ushbu poyga tufayli bugungi go'dak hayotida ta'lim o'ta ko'p vaqt oladigan bo'ldi, ota-onalarning talablari esa muntazam ortib bormoqda. Ota onalar bolaga olamga nisbatan faqat o'zining qarashlarini tiqishtirmoqda, shu asnoda agar bola kitob o'qishni bilsa maktabga tayyor degan sodda fikrga bormoqdalar. Bu juda katta xatodir. Bolani maktabga tayyorlash uchun ota-onalar bolaning umumiy rivojlanishiga: mayda motorikaga, jismoniy tayyorgarlikka, fikrlash mantiqiga, jamiyatga ijtimoiy moslashuviga katta e'tibor qaratishlari lozim. ana shundagina kitob o'qish ko'nikmasi va istagi o'z o'zidan paydo bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka jalb qilishda nafaqat oilaviy muhit, balki bog'chada tashkil etiladigan pedagogik muhit ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining guruhlarida maxsus "Kitob burchaklari" shunchaki kitob javoni vazifasini bajarmasligi kerak. Bu burchak bolaning diqqatini tortadigan, rang-barang, qulay va uning bo'yi yetadigan darajada past joylashgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Pedagog bolalarga kitobni shunchaki o'qib berishi emas, balki "Interaktiv mutolaa" metodidan foydalanishi lozim. Bu metodda kitob o'qish jarayoni to'xtatilib, bolalardan: "Sizningcha, keyingi sahifada quyuncha kimni uchratadi?" yoki "Ayiqvoy nega xafa bo'ldi?" kabi muammoli savollar orqali ularning mantiqiy fikrlashini faollashtirish talab etiladi.

Bugungi kun XXI asr texnologiyalar asri bo'lganligi sababli, bolalarni smartfon va planshetlardan chalg'itib, kitobga yo'naltirish pedagoglardan alohida mahorat talab qiladi. Bunga muqobil yechim sifatida bog'chalarda va oilada "Audio-kitob va vizualizatsiya" usulini qo'llash mumkin. Bola avval ertakning audio variantini chiroyli musiqiy bezaklar ostida tinglaydi, so'ngra pedagog yoki ota-ona o'sha ertakning kitob shaklidagi rangli rasmlarini bola bilan birga ko'rib chiqadi. Bu narsa bolada "Bu rasmlarning ichida nimalar yozilgan ekan?" degan qiziqish va ichki motivatsiyani uyg'otadi.

Kitobxonlikka qiziqitirishning yana bir vizual usuli — bu "Kitob kasalligi" (ijobiy ma'noda) o'yini bo'lib, bunda haftada bir marta bog'chada bolalar o'zlari yoqtirgan sevimli kitoblarini uydan olib kelishadi va bir-birlariga maqtab, almashib o'qishadi. Bu usul bolalarda ijtimoiy moslashuvni va jamoada kitobga bo'lgan ommaviy qiziqishni kuchaytiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolani kitob o'qishga majburlash — unda mutolaaga nisbatan umrbod nafrat uyg'otishi mumkin. Pedagog va ota-onaning asosiy vazifasi bolaga harflarni majburlab yodlatish emas, balki kitob orqali dunyoni anglash zavqini hadya etishdir. Kitob o'qish jarayoni bola uchun majburiyat emas, balki qiziqarli o'yin, ota-onasi yoki tarbiyachisi bilan dildan suhbatlashish vositasi bo'lishi kerak. Faqatgina erkin tanlov, hissiy rag'bat va interaktiv o'yinlar orqali biz kelajakda intellektual salohiyatli, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga erisha olamiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori. Toshkent, 2017-yil.
2. Shodiymuratova, M. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka o'rgatishning pedagogik tizimi. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.

3. Vygotskiy, L. S. (2014). Bola taraqqiyotida o‘yin va uning roli. (Tarjima). Toshkent: "Pedagogika".
4. Sodiqova, Sh. A. (2018). Maktabgacha pedagogika. Toshkent: "Tafakkur bo‘stoni".
5. Hasanboeva, O. U. va boshqalar. (2019). Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. Toshkent: "G‘afur G‘ulom".
6. Armstrong, T. (2016). Bolalardagi iqtidor va qiziqishlarni aniqlash metodikasi (ko‘p tarmoqli intellekt nazariyasi asosida). Nyu-York.
7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan variant). Toshkent, 2022-yil.